

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



ISSN 3030 - 3230

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN



www.mgixu.uz

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY



konstitutsiya, inson huquqlari
va milliy qonunchilik



jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi



harbiy sohadagi islohotlar



ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb
nazariy-amaliy masalalari



ta'lim-tarbiya jarayoni



iqtisodiyot: nazariya va amaliyot



texnika va texnologiyalar taraqqiyoti



xorijiy tajriba



yosh olimlar minbari

2026, №1



@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120



t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti
t.me/jxueditor



jamoatxavfsizligi_universiteti



e-mail:jurnal@mgixu.uz

Muassis:
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

"JAMOAT XAVFSIZLIGI" ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Tashmatov B.X.
Yunusobod tumanidagi kriminogen
vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari tahlili **03**

Rustambayev M.X.
Ekologik huquqbuzarliklar uchun jinoiy
javobgarlikni takomillashtirish muammolari **10**

Zulfiqorov Sh.X., Payziyev A.M.
Millat genofondini giyohvandlik va
narkojinoyatlardan samarali himoya qilish
narkojinoyatlarga qarshi kurashishda
muammo va yechimlar **15**

Муракаев И.И.
Интеллектуальные цифровые двойники
в системе обеспечения общественной
безопасности: от кибернетической
теории к практике применения **19**

**I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI
VA MILLIY QONUNCHILIK**

Ruziyev R. Dj.
Qonun va huquq analogiyasining
mazmun-mohiyati **25**

Dadasheva A. A., Shokirjonova R.M.
O'zbekistonda onlayn tavakkalchilik
o'yinlariga tobelik muammolari va tahdidlar **29**

Низаметдинходжаев У.Р.
Принципы и стандарты обеспечения
прав человека в процессе реализации
международного антикриминального
сотрудничества **33**

Zokirov B.
Preliminary Analysis of the Implementation
of Returned Criminal Assets and the Role of
Civil Society in These Processes **39**

Qilichev X.M.
Fuqarolar yig'inlari faoliyatini tashkil etishda
fuqarolik-huquqiy shartnomalarning o'rni **45**

MUNDARIJA

52 Allamurodov O.A.
Servitut shartnomasining shakli va
servitutni ro'yxatdan o'tkazish

57 Najmutdinova M.F.
Vasiylik va homiylik organlari faoliyatida
qonuniylikni ta'minlashda prokuror
nazoratining o'ziga xos xususiyatlari

62 Ilxombekov J.I.
O'zbekiston Respublikasida ommaviy
axborot vositalari faoliyatining
konstitutsiyaviy huquqiy asoslari

69 Rixsimov K.A.
Ozodlikdan mahrum qilish jazosi
tushunchasi va uning nazariy manbalari

75 Muxamedov U.T.
Fuqarosizlikni qisqartirishning ma'muriy -
huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish

80 Nasrullayev F.S.
Ekstraditsiya va mahkumni topshirish
institutlarining huquqiy tamoyillari va
rivojlanishi tendensiyalari

85 Xudayberganova D.Z.
Yetim bolalarga ism, familiya va sharif
berishda amalda uchrayotgan kamchiliklar
va ularning bola huquqlariga ta'siri

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI

90 Usmonova M.A., Yarashev B.Ch.
Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish:
islohot natija va yechimlar

94 Maxsador M.I.
Xavfsiz shahar va xavfsiz mahalla
konsepsiyalari doirasida davlat organlari
hamkorligi tahlili: Milliy gvardiya va ichki
ishlar organlari misolida

104 Yusupov M.B.
Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va
o'tkazish: xalqaro tajriba va tahlil

110 Ortikov J.A.
Jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan
kuch ishlar tuzilmalarning o'q
otish tayyorgarligida qo'llaniladigan
metodikalarni takomillashtirish masalalari

115 Shaymardonov J.Z.
GPS texnologiyalarining jamoat
xavfsizligidagi o'rni va xorijiy tajribalar



EKSTRADITSIYA VA MAHKUMNI TOPSHIRISH INSTITUTLARINING HUQUQIY TAMOYILLARI VA RIVOJLANISHI TENDENSIYALARI

Nasrullayev Firdavs Suxrobovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarining huquqiy tabiati, asosiy tamoyillari va rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Xalqaro va milliy qonunchilikda mazkur tushunchalarning aniq normativ ta'riflar mavjud emasligi amaliyotda turlicha talqinlarga sabab bo'layotgani asoslanadi. Institutlarning o'zaro farqlari ilmiy jihatdan ko'rsatiladi va O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ekstraditsiya, mahkumni topshirish, xalqaro hamkorlik, jinoyat-protsessual huquq, huquqiy tartibga solish.

Globalashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi sharoitda davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlikning ahamiyati sezilarli darajada ortayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, transmilliy jinoyatchilikning o'sishi, terrorizm, odam savdosi, korrupsiya va boshqa xavfli jinoyat turlarining chegaraviy ahamiyat kasb etishi mamlakatlarni jinoyatuchunjazolashningsamaralimexanizmlarini birgalikda qo'llashga majbur etmoqda. Shunday vaziyatda jinoyat sodir etgan shaxsning boshqa davlat yurisdiksiyasida javobgarlikka tortilishiga huquqiy zamin yaratadigan ekstraditsiya va mahkumlarni topshirish institutlari jinoyat-protsessual huquqida xalqaro hamkorlik sohasida muhim mexanizmlaridan biri sifatida shakllandi.

Xalqaro huquqda – ekstraditsiya jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan, ayblangan yoki hukm qilingan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki sud hukmini ijro etish maqsadida bir davlatdan boshqa bir davlat yurisdiksiyasiga topshirishni nazarda tutadigan huquqiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ekstraditsiyaning asosiy mohiyati jinoyat uchun jazo muqarrarlari prinsipini amalga oshirish hamda davlatlar o'rtasidagi jinoyat-protsess sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlashdan iborat [1].

Shu bilan birga, amaldagi O'zbekiston qonunchiligida ekstraditsiya va mahkumni topshirish tushunchalarining aniq normativ ta'riflari mavjud emas. Mazkur holatda institutlarning huquqiy tabiati, vazifalari va qo'llanish doirasini belgilashda muayyan noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Normativ asosning yetarli darajada aniq emasligi amaliyotda turlicha talqinlarga olib kelib, huquqni qo'llashda yagona yondashuvning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shu jihatdan, institutlarning funksional maqsadi va huquqiy

mohiyatini ajratishda qator qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi – ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarining huquqiy mohiyatini ilmiy jihatdan yoritish, ularning o'zaro farqlovchi belgilarini asoslash hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

Ekstraditsiya institutining huquqiy tabiati va asosiy tamoyillari. Ekstraditsiya xalqaro shartnomalar, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar hamda milliy qonunchilik normalariga tayangan holda amalga oshiriladigan tarmoqlararo huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu institutning amal qilishi davlat suverenitetini, yurisdiksiyon mustaqillikka rioya qilish va xalqaro hamkorlik talablarini uyg'unlashtirishni talab etadi. Ekstraditsiya jarayoni, mohiyatan, davlatlar o'rtasidagi jinoyat-protsessual o'zaro yordamning huquqiy mexanizmlaridan biri bo'lib, uning qonuniy va xolis amalga oshirilishi tegishli tamoyillar va huquqiy kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ekstraditsiya instituti insonning asosiy huquqlari himoyasini ta'minlaydigan, huquqni qo'llashdagi barqarorlikni saqlaydigan va har bir ish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy me'yorlar asosida tartibga soladigan bir qator bazaviy tamoyillarga tayanadi. Mazkur tamoyillar ekstraditsiya jarayonining qonuniyligi, himoya kafolatlari va adolatli jarayon talablariga rioya qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ekstraditsiya instituti huquqiy asoslari bir nechta manbalarga tayanadi. Jumladan, davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar,

Шахенинг экстрадиция килиниши фақат ҳар икки давлат қонунларига кўра содир этилган қилмиш жиноят деб ҳисобланган тақдирдагина йўл қўйилади, қийноқ хавфи мавжуд бўлган тақдирда бундай топшириш мутлақо тақиқланади.

Қийноқ ёки инсон шаънига зид таҳдид мавжуд бўлса экстрадиция мутлақо тақиқланади, шу билан бирга, шахс бир жиноят учун такроран жавобгарликка тортилишига йўл қўйилмайди.

Minsk va Kishinyov konvensiyalari, shuningdek, 1957 yilgi Yevropa ekstraditsiya to'g'risidagi konvensiyasi xalqaro huquqda me'yoriy namuna sifatida xizmat qiladi, milliy huquqda esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasi 2-qismi (*O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas*) [2]ligi belgilab, ekstraditsiya institutining konstitutsion doirasini belgilaydi. Jinoyat kodeksining 12-moddasi 2-qismi (*O'zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas*) [3]ligini belgilab berilgan, Jinoyat-protsessual kodeksining 65-bobi, (*Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish*) 599-609-moddalar [4]orqali tartibga soladi.

Amaliyot tahlili shundan dalolat beradiki, ushbu manbalar mavjud bo'lishiga qaramay, milliy qonunchiligimizda "*ekstraditsiya*" atamasi qonun darajasida normativ ta'rif bilan mustahkamlanmagan. Bizning fikrimizcha, aniq ta'rifning yo'qligi institutning huquqiy tabiati, vazifalari va qo'llanish chegaralariga oid turlicha talqinlarni keltirib chiqaradi. Bu holat huquqni qo'llashda barqaror yondashuvning shakllanmasligiga, amalda esa ayrim protsessual xatolarga keltirib chiqarishi mumkin.

Umarxanova ekstraditsiya institutiga inson huquqlari prizmasidan yondashish zarurligini ko'rsatadi. Muallifga ko'ra, mazkur jarayonda konstitutsion va xalqaro kafolatlar barcha bosqichlarda ta'minlanishi shart [5].

Sayfulovning ta'kidlashicha, ekstraditsiyaga oid aniq ta'rifning mavjud emasligi institutning

protsessual mexanizmlarini belgilashda huquqiy nomutanosiblikni yuzaga keltiradi va amaliyotda bir xil huquqiy munosabatlarga nisbatan turlicha qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammo nafaqat tartib-qoidalarning tarqoq holda joylashganida, balki biror normativ hujjatda ekstraditsiyaning mohiyati va huquqiy tabiati yagona konseptual asosda bayon etilmaganida ham namoyon bo'ladi [6].

Doktrinal manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstraditsiya institutining mazmuni va huquqiy tabiatiga nisbatan yagona yondashuv shakllanmagan. Xorijiy tadqiqotlarda ushbu institut faqat shaxsni bir davlatdan ikkinchisiga topshirish akti sifatida emas, balki tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan, ko'p bosqichli va murakkab huquqiy mexanizm sifatida tavsiflanadi. Ekstraditsiyaning ilk shakllari qadimgi davlatlar o'rtasidagi shartnomalarda namoyon bo'lib, keyinchalik u suverenitet, o'zaro ishonch va jinoyat uchun jazo muqarrarligi prinsiplari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib borgan. Zamonaviy xalqaro huquqda esa ekstraditsiya jarayoni inson huquqlarini himoya qilish talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u endilikda faqat jazolovchi vosita emas, balki adolatli sud muhokamasi va inson qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan institut sifatida qaralmoqda [7].

Ayrim mualliflar uni asosan xalqaro jinoyat huquqi instituti sifatida talqin etsa, boshqalari ekstraditsiyani jinoyat-protsessual mexanizmlar majmui sifatida baholaydi. Shu bilan birga, keng yondashuv tarafdorlari ekstraditsiyani qidiruv, ushlab turish, protsessual majburlash choralarini qo'llash hamda xalqaro so'rovlarni ijro etishni qamrab olgan kompleks jarayon sifatida ko'radi. Biroq mazkur doktrinal yondashuvlarning



aksariyati milliy qonunchilikda aniq normativ ta'rif mavjud emasligi sharoitida amaliyotga to'liq tatbiq etib bo'lmashini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ekstraditsiya institutining huquqiy tabiati, maqsadi va chegaralari qonun darajasida belgilab berilmagani huquqni qo'llashda turlicha talqinlarga sabab bo'lmoqda. Bizning fikrimizcha, aynan shu holat ekstraditsiyani nazariy jihatdan to'g'ri tasniflash va amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shu nuqtayi nazardan, mualliflik pozitsiyasi sifatida quyidagi ta'rif asosli deb hisoblaymiz. Ekstraditsiya, avvalo, jinoyat uchun jazo muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmdir. U xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik normalariga asoslanib amalga oshiriladi. Bizningcha, ushbu ta'rif institutning subyektiv tarkibini, huquqiy manba tizimini va tartibning funksional mohiyatini qamrab oladi hamda amaldagi talqinlar xilma-xilligini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Mahkumni topshirish institutining huquqiy mohiyati va rivojlanish tendensiyalari. Mahkumlarni topshirish instituti, o'z mohiyatiga ko'ra, jazoni ijro etish jarayonida shaxsning milliy, madaniy va huquqiy muhit bilan uzviy aloqasini saqlab qolishga qaratilgan insonparvarlik mexanizmdir. Bizning fikrimizcha, mazkur institut ekstraditsiyadan farqli ravishda jazoni o'tash sharoitlarini shaxsning ijtimoiy reabilitatsiyasiga moslashtirishni ko'zlaydi va shu jihati bilan gumanitar vazifani bajaradi.

Boshqa tomondan, A.I. Boytsov mahkumni topshirish institutining asosiy vazifasi sifatida shaxsni uning fuqarosi yoki doimiy yashovchisi bo'lgan davlatga qaytarish orqali jazoni ijtimoiy yaqin muhitda o'tashini ta'minlashni ko'rsatadi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jazoni tanish muhitda o'tash shaxsning qayta ijtimoiylashuv imkoniyatlarini kengaytiradi va reabilitatsiya samaradorligini oshiradi[8].

Biroq mazkur yondashuv milliy qonunchilikda institutsional mexanizmlar yetarli darajada aniq belgilanmagan sharoitda to'liq samara bermasligi mumkin.

Shuruxnova ham ushbu institutning xalqaro hamkorlik sohasidagi o'rniga e'tibor qaratgan holda, uning maqsadi – mahkumga vatanida jazoni o'tash imkoniyatini yaratish ekanini ta'kidlaydi. Muallif nuqtayi nazaricha, bunday yondashuv jazoni ijro etish jarayonini yengillashtiradi va

shaxsning jamiyatga qaytishini tezlashtiradi[9].

T.V. Reshetneva esa topshirish institutni mustaqil huquqiy mexanizm sifatida baholab, uning mohiyati hukm chiqargan davlatdan jazoni ijro etuvchi davlat yurisdiksiyasiga o'tkazish tartibini belgilaydigan normalar majmui ekanini qayd etadi. Bu yondashuv institutni tartibga soluvchi huquqiy normalarning yaxlit tizim sifatida qaralishi zarurligini ko'rsatadi[10].

Mahkumni topshirish institutining gumanitar mohiyati shaxsning jazoni o'z milliy, ijtimoiy va madaniy muhitida o'tashini ta'minlash orqali uning qayta jamiyatga moslashishini yengillashtirishga qaratilgan. Mahkum vataniga qaytarilganda til, madaniyat va ijtimoiy muhit bilan bog'liq moslashuv jarayonlari tezlashadi, bu esa reintegratsiya samaradorligini oshiradi. Oilaga yaqinlik, uchrashuvlar imkoniyatining kengayishi va psixologik qo'llab-quvvatlashning saqlanishi shaxsning ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytiradi. Shuningdek, mahkumning milliy sog'liqni saqlash tizimidan foydalanishi, o'z tilida muloqot qila oladigan mutaxassislar bilan ta'minlanishi va milliy standartlarga mos tibbiy xizmat olishi jazoni insonparvarlik tamoyillariga muvofiq ijro etishning muhim kafolati hisoblanadi.

Mazkur gumanitar yo'nalish xalqaro huquqda ham o'z e'tirofini topgan bo'lib, BMTning Namunaviy shartnomasi, 1983 yildagi Yevropa konvensiyasi hamda MDH doirasidagi "Mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi konvensiyasi mexanizmining huquqiy asoslarini belgilaydi. O'zbekistonning bir qator davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama shartnomalari ham ushbu institutning amaliyotdagi ahamiyatini mustahkamlaydi.

Milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, "ekstraditsiya" va "topshirish" atamalari qonun darajasida aniq ta'riflanmagan. JPKda ushbu masalalarga oid faqat ish yuritish shakli mavjud bo'lib, institutlarning huquqiy tabiati va gumanitar mohiyatini aks ettiruvchi norma JPKda nazarda tutilmagan. Muallif fikricha, aynan shu holat amaliyotda turli talqinlar yuzaga kelishiga, huquqni qo'llashda bir xil yondashuv shakllanmasligiga hamda xalqaro standartlar bilan to'liq uyg'unlashuv ta'minlanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur institutlar bir-birini to'ldiruvchi, biroq



mustaqil huquqiy mexanizmlardir. Olimlarning qarashlarini tahlil qilinganida, ularni birlashtiruvchi umumiy xulosa shundan iboratki, ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarining huquqiy tabiati milliy qonunchilikda aniq normativ asos bilan ta'minlanmagan.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston huquq tizimida ekstraditsiyaga huquqiy ta'rifning kiritilishi, inson huquqlariga oid kafolatlarning qonun darajasida mustahkamlanishi va mahkumlarni topshirish institutining mustaqil yo'nalish sifatida huquqiy tartibga solinishi amaliyotda yagona va barqaror yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, milliy huquq tizimida *"Ekstraditsiya to'g'risida"*gi alohida qonun qabul qilinishi zarur. Bunday qonunda institutning huquqiy tabiati, tamoyillari, kafolatlari va jarayon bosqichlari aniq ifodalanishi amaliyotdagi huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, *"ekstraditsiya"* va *"topshirish"* atamalarining qonun darajasida aniq belgilanishi talqinlar xilma-xilligini bartaraf etib, huquqiy aniqlikni mustahkamlaydi.

Xulosa: Ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlari zamonaviy jinoyat-protsessual hamkorlikning strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlari qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu institutlar

davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va inson huquqlarini ta'minlashda muhim funksional vazifani bajaradi. Biroq, ularning huquqiy tabiati, maqsadi va amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilab beradigan qonun normalarining mavjud emasligi amaliyotda qator muammolar – turlicha talqinlar, norma qo'llashdagi barqarorlikning yo'qligi va xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaslik kabi holatlarni yuzaga chiqarayotgani aniqlandi.

Muallif fikricha, ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarining milliy huquqda aniq va tizimli tartibga solinishi huquqiy aniqlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Shu bois, mazkur atamalarni qonun darajasida mustahkamlash, ularning huquqiy mohiyati, tamoyillari va kafolatlarni aniq bayon etish hamda amalda qo'llashning yagona mexanizmlarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, alohida *"Ekstraditsiya to'g'risida"*gi qonun qabul qilinishi orqali milliy qonunchilikning bilan uyg'unlashuvi ta'minlanadi va amaliyotda yagona, barqaror hamda huquqiy asoslangan yondashuv shakllanadi. Ekstraditsiya tushunchasini qonun darajasida normativ ta'riflash mazkur sohada alohida kompleks qonun qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Аннотация. В статье анализируются правовая природа, базовые принципы и направления развития институтов экстрадиции и передачи осуждённых. Обосновывается, что отсутствие нормативно закреплённых дефиниций указанных понятий в национальном и международном праве порождает неоднозначность в правоприменении. Выявлены ключевые различия между институтами и предложены рекомендации по совершенствованию законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: экстрадиция, передача осуждённых, международное сотрудничество, уголовный процесс, правовое регулирование.

Annotation. The article examines the legal nature, core principles, and development trends of the institutions of extradition and transfer of convicted persons. It is argued that the absence of clear statutory definitions in national and international law creates inconsistencies in legal practice. The study identifies the main distinctions between the two institutions and provides recommendations for improving Uzbekistan's legislation.

Key words: extradition, transfer of convicted persons, international cooperation, criminal procedure, legal regulation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev D., Sattarov D., Muminov A. Xalqaro huquq: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Bojxona instituti, 2020. – [225-b.]
2. Конституция Республики Узбекистан // «Лекс — Ўзбекистон». – 30.04.2023. – № 6445145. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145>. – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
3. Уголовный кодекс Республики Узбекистан // «Лекс — Ўзбекистон». – 22.09.1994. – № 111453. – URL: <https://www.lex.uz/acts/111453>. – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
4. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан // «Лекс — Ўзбекистон». – 22.09.1994. – № 111460. – URL: <https://lex.uz/acts/111460> – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
5. Умарханова Д. Экстрадиция и гарантии прав человека в уголовном процессе. 14-33-бетлари
6. Sayfulov R.A. Ekstraditsiya institutining jinoyat-protsessual va xalqaro-huquqiy asoslari. Avtoreferat. – Toshkent, 2023. – 20–21-betlar
7. Moodrick-Even Khen H. Mutual Legal Assistance and Double Criminality: Bolstering the Struggle against Impunity outside the ICC Framework // Journal of International Criminal Justice. 2025. Vol. 23. No. 1. P. 87–106. DOI: 10.1093/jicj/mqaf008.
8. Бойцов А.И. Институт передачи осуждённых. В кн.: Международное уголовное право. СПб., 2004. С. 380–390.
9. Шурухнова Д.Н. Выдача, передача и выдворение лиц в отношениях государств. Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2001. – С. 27.
10. Решетнева Т.В. Экстрадиция полипатридов... Дис., 2009. – С.113.

